

INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHNING SAMARALI MODELLARI

Abdikadirova N.S.

O'zDJTSU, dotsent

Jahon tajribasi shuni anglatadiki, inson salohiyatini yuksaltirish masalasi barqaror rivojlanishning asosiy ustuni sifatida talqin etilmoqda. Shu munosabat bilan rivojlangan davlatlar tajribasida ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori va innovasiya sohalarini qamrab olgan kompleks strategiyalar ishlab chiqilgan hamda ular orqali inson salohiyatini rivojlantirishning turli yo'nalishlari yo'lga qo'yilgan.

Shuni aytib o'tish joizki, yangi O'zbekistonda inson salohiyatini yuksaltirish strategiyalari sifatini yanada oshirish borasidagi olib borilayotgan ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish uchun global ijtimoiy siyosatning universal qoidalarini joriy qilish bilan birga, ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda AQSh dunyodagi eng qudratli davlat sifatida tan olingan. Inson salohiyatiga oid ijtimoiy siyosatga nazar tashlar ekanmiz, AQSh bu sohada ilg'or tajribaga ega davlat sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, inson salohiyatini rivojlantirishda jahonda yetakchi o'rinni egallagan ilmiy markazlar va nufuzli oliy ta'lim muassasalari mavjud. Xususan, Stenford va Garvard universitetlari nafaqat malakali kadrlar tayyorlashda, balki innovatsiya, tadbirkorlik hamda startap ekotizimini shakllantirish va rivojlantirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu ta'lim maskanlari global darajada inson salohiyatiga oid nazariy va amaliy tajribani boyitishda muhim o'rin tutadi.

Inson salohiyati masalasi AQShda XX asrning boshlaridanoq iqtisodiy rivojlanish va mehnat bozori tahlillari bilan uzviy bog'liq ravishda kun tartibiga kirdi. Bu davrda asosiy e'tibor ishchi kuchining salomatligi va savodxonligiga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ta'lim va tibbiyot sohasiga sarmoya yo'naltirish muhim omil sifatida ko'rsatilardi. Biroq bu qarashlar hali mustaqil ilmiy konsepsiya shaklida to'liq shakllanmagan edi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, jahon ijtimoiy-iqtisodiy fanlari va siyosiy nazariyasida inson salohiyati alohida yo'nalish sifatida rivojlana boshladi. Bu jarayon ayniqsa AQShda yaqqol namoyon bo'lib, tezkor va samarali ilmiy izlanishlar hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishi orqali mustaqil ilmiy maktab darajasiga ko'tarildi.

AQSh tajribasi inson salohiyatini yuksaltirish konsepsiyasining nazariy va metodologik asoslarini chuqur o'rganish uchun namunalil ilmiy maktab sifatida xizmat qiladi. Amerikaning nazariy va amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatiga investisiya kiritish faqat iqtisodiy samaradorlikka emas, balki ijtimoiy adolat, demokratik qadriyatlar va innovasion rivojlanishga ham xizmat qiladi. Bu yo'nalishda amalga oshirilgan davlat siyosatlari va akademik tadqiqotlar global miqyosda inson salohiyati konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslarini boyitdi va uni universal paradigma darajasiga ko'tardi.

Singapur tajribasi esa davlatning strategik boshqaruvi va xususiy sektor bilan samarali hamkorlik qilish orqali inson salohiyatini yuksaltirishda alohida o'rin tutadi. Mamlakatda davlat tomonidan uzluksiz ta'lim konsepsiyasi joriy etilgan bo'lib, har bir fuqaroning butun umri davomida kasbiy rivojlanishi uchun sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, inson kapitalini innovatsiya va tadbirkorlik orqali rivojlantirish milliy siyosatning asosiy ustuniga aylantirilgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy modeli «Singapur mo'ljizasi» nomi bilan jahon ilmiy va siyosiy doiralarida keng qo'llanib keladi. Bu modelning asosida qat'iy davlat boshqaruvi, samarali iqtisodiy siyosat, tashqi investitsiyalarni jalb qilish va inson kapitaliga ustuvor ahamiyat qaratilishi yotadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Singapur inson rivojlanishi indeksi (HDI) bo'yicha yuqori o'rinlarni egallab keladi, shuningdek, Jahon banki va Jahon iqtisodiy forumi tomonidan dunyodagi eng raqobatbardosh iqtisodiyotlardan biri sifatida baholangan.

Singapur tajribasi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun namuna sifatida xizmat qiladi. Uning rivojlanish strategiyasi davlatning tizimli tartibga solish siyosati bilan erkin bozor

mexanizmlarini uyg'unlashtirishga asoslangan. Natijada mamlakat nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy barqarorlik, qonun ustuvorligi va fuqarolarning turmush darajasi bilan ham ajralib turadi.

Umuman olganda, Singapurning ijtimoiy siyosat modeli inson salohiyatini rivojlantirishda kompleks yondashuvga asoslanadi. Unda ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori va uy-joy siyosati o'zaro uyg'un holda amalga oshirilib, mamlakatning barqaror rivojlanishi va global raqobatbardoshligi ta'minlanmoqda. Mazkur tajriba O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun inson salohiyatini yuksaltirishda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Janubiy Koreya tajribasi shu jihatdan o'rnak bo'ladi, chunki mamlakatning 1960-yillardan boshlab qashshoq iqtisodiyotdan yuksak texnologiyali sanoat mamlakatga aylanishi aynan inson kapitaliga yirik investisiya kiritish bilan bog'liqdir. Bu jarayonda ta'lim qamrovini oshirish, texnik va kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda innovatsiyalarga ochiq iqtisodiy muhit yaratish hal qiluvchi omil bo'lgan.

Janubiy Koreya tajribasi inson salohiyatini rivojlantirish yo'nalishida dunyoda eng samarali modellardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu mamlakat Ikkinchi jahon urushi va keyingi Koreya urushi oqibatlaridan keyin iqtisodiy jihatdan juda og'ir ahvolga tushib qolgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida ijtimoiy siyosat orqali inson kapitalini shakllantirishga alohida e'tibor berdi.

Janubiy Koreya so'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalari sohasida jahon miqyosida ulkan yutuqlarga erishgan mamlakat sifatida tan olingan. Bill Geytsning ta'kidlashicha, Koreya bu sohada "hammadan oldinga o'tgan", shuningdek, «Korea Telecom» rahbari Sang-Chul Li ham mamlakatda model sifatida ko'rsatadigan davlat qolmaganini qayd etgan. Ayniqsa, 1997 yilgi iqtisodiy inqiroz sharoitida ko'plab ishsizlar internet-korxonalar tashkil etib, axborot bozorining jadal o'sishiga turtki berdi.

Axborot sohasidagi davlat siyosati 1980-yillarda ishlab chiqilgan «Milliy asosiy axborot tizimi» (NBIS) dasturi orqali boshlandi. 1987 yildan amalga kiritilgan bu dastur kompyuterlashtirish va iqtisodiy o'sishni o'zaro uyg'un tarzda bog'lashga xizmat qildi. Keyinchalik, 1994 yil aprelida «Milliy axborot supermagistrali» qabul qilinib, 1995 yildan «Koreya axborot infratuzilmasi» (KII) deb nomlandi. Bu uzoq muddatli strategiya Janubiy Koreyani industrial modeldan rivojlangan davlat iqtisodiyotiga olib o'tishda hal qiluvchi zveno sifatida qaraldi.

Dasturda davlat investitsiyalarining ustuvor yo'nalishlari aniqlandi: jamiyatning asosiy sohalarini kompyuterlashtirish, yangi telekommunikatsiya tarmoqlari va zamonaviy aloqa infratuzilmasini barpo etish. Shu asosda ikki yo'nalishda milliy tarmoq qurilishi ko'zda tutildi:

- davlat tarmog'i — hokimiyat organlari, maktab va kutubxonalarni qamrab olgan jamoat tashkilotlarini bog'laydi;

- xususiy tarmoq — kompaniyalar va aholi uchun multimedia hamda kengpolos xizmatlarini taqdim etadi.

Optik tolali kabellar asosiy aloqa liniyasi sifatida tanlanib, rejalashtirilgan muddatdan oldin — 2000 yil dekabrda butun mamlakat bo'ylab yuqori tezlikdagi tarmoq infratuzilmasi yakunlandi. Natijada 144 yirik va 190 kichik shahar yuqori sifatli tarmoqqa ulandi. 2000 yildan boshlab barcha maktablar internetga ulandi, 2001 yildan esa ta'lim muassasalari uchun internet xizmati to'liq bepul qilindi. Shu davrda uy xo'jaliklarining 68%i shaxsiy kompyuterga, aholining qariyb yarmi esa internet xizmatlariga ega bo'ldi. 2002 yilga kelib, har 100 nafar aholiga 64 mobil telefon to'g'ri kelishi qayd etildi.

Janubiy Koreya milliy axborot infratuzilmasini rivojlantirishda davlatning uzoq muddatli strategiyasi, to'g'ri investitsiya siyosati va aholi faol ishtiroki natijasida jahonning yetakchi raqamli davlatlaridan biriga aylandi. Janubiy Koreyada inson salohiyatining rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari iqtisodiy o'sish va ta'limning yuqori sifatiga kuchli bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bu omil mamlakatning rivojlanayotgan davlatdan dunyodagi yetakchi iqtisodiyotlardan biriga tezkor transformasiyasini ta'minladi.

Shu tariqa, Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatiga qaratilgan kompleks ijtimoiy siyosat — ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori va madaniy barqarorlik uyg'unligida amalga oshirilganda, mamlakatning jadal iqtisodiy taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Jahon banki va YUNESKO hisobotlarida ta'kidlanganidek, inson salohiyati indeksining yuqori ko'rsatkichlari iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, Jahon bankining "Human Capital Index 2021" hisobotiga ko'ra, inson kapitaliga maqsadli investitsiya kiritgan mamlakatlar iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlik yo'nalishida yuqori natijalarga erishmoqda [10].

Shu nuqtai nazardan, ilg'or xalqaro tajribalar tahlili inson salohiyatini yuksaltirish milliy strategiyalarning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- ta'lim tizimini sifat jihatidan takomillashtirish va barcha bosqichlarda qamrovni kengaytirish;
- sog'liqni saqlash tizimini profilaktika va innovatsiya asosida rivojlantirish;
- mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda umrbod o'qish tamoyilini qo'llab-quvvatlash;
- innovatsiya va tadbirkorlik muhitini kuchaytirish.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatini yuksaltirish jarayonida davlat siyosati, ijtimoiy institutlar va global hamkorlik o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va ilmiy-nazariy yondashuvlar inson salohiyatini milliy taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida belgilaydi. Jumladan, BMTning Inson rivojlanishi hisobotlari (HDR) global miqyosda inson rivojlanishi indeksini belgilash orqali mamlakatlar taraqqiyotida ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiy imkoniyatlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etdi.

Rivojlangan mamlakatlarning inson salohiyatini rivojlantirish jarayonida umumiy trendlar haqida gapiradigan bo'lsak, bu borada quyidagi jihatlarni ajratish lozim:

Birinchidan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Singapur, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson salohiyatini rivojlantirishda qator umumiy tendensiyalar mavjud. Birinchi navbatda, bu mamlakatlarda ta'lim tizimi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, AQShda innovatsion universitetlar va ilmiy markazlar inson kapitali rivojining asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilsa, Janubiy Koreya esa «milliy axborot infratuzilmasi» orqali raqamli savodxonlikni jadal rivojlantirdi, Singapur xalqaro bilim va kadrlarni jalb etish orqali ta'lim sohasini global raqobatga moslashtirdi.

Ikkinchi jihat – sog'liqni saqlash tizimining samarali tashkil etilishi. AQShda tibbiy innovatsiyalar va xususiy sektor yetakchi o'rinda turibdi. Singapurda tibbiy xizmat davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan bo'lib, aholi salomatligini muhofaza qilish iqtisodiy samaradorlik bilan uyg'unlashtirilgan. Janubiy Koreyada esa tibbiy texnologiyalar va raqamlashtirilgan xizmatlar keng yo'lga qo'yilgan.

Uchinchi muhim yo'nalish – mehnat bozorini takomillashtirish va inson resurslarini uzluksiz qayta tayyorlash. Masalan, AQShda innovatsion iqtisodiyotga moslashgan kadrlar tayyorlashga katta sarmoya yo'naltirilsa, Koreyada raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali mutaxassislar yetishtirilmoqda. Singapur esa mehnat bozorini tashqi migrasiya siyosati bilan uyg'unlashtirib, yuqori raqobatbardosh muhit yarata oldi.

To'rtinchi tendensiya – innovatsiyalar va raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan strategik siyosat. Barcha mazkur mamlakatlarda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, biotexnologiya va "yashil iqtisodiyot" sohalari inson salohiyati rivojining yangi bosqichi sifatida belgilangan.

Shu tariqa, rivojlangan mamlakatlar tajribasi inson salohiyatini rivojlantirish jarayonida quyidagi umumiy trendlarni ko'rsatadi:

1. Ta'lim sifatini innovatsion va inklyuziv asosda takomillashtirish.
2. Sog'liqni saqlash tizimini universal, barqaror va samarali qilish.
3. Mehnat bozorida raqobatbardoshlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlash.
4. Innovatsiya, raqamli texnologiya va yangi iqtisodiy yo'nalishlarga ustuvor ahamiyat berish.

Umuman olganda, shuni ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda inson salohiyati sifatini oshirish rivojlangan davlatlar ijtimoiy siyosatining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki inson resursi zamonaviy taraqqiyotning asosiy va hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Schultz, T.W. Investment in human capital /T. W. Schultz // The American economic review. 1961. 51(1). P. 1–17.
2. Schulz T. Capital Formation bi Edukathion // Journal of Politikal Economu. – 1960, p.25.
3. Schulz T. Investment in Human Capital // American Economic Revien.– 1961, March – № 1.
4. Statistics Singapore - Latest Data [Электронный ресурс] / Singapore Department of Statistics, 2024:
5. <https://ru.tradingeconomics.com/singapore/population>
6. <https://ru.tradingeconomics.com/singapore/gdp-per-capita>.

REZYUME:

Mazkur maqolada inson salohiyatini rivojlantirish va yuksaltirishning samarali modellari hamda ularning jahon tajribasidagi oʻrni tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: inson salohiyati, inson kapitali, rivojlanish strategiyasi, taʼlim tizimi, innovatsiya, iqtisodiy oʻsish, xalqaro tajriba, ijtimoiy siyosat

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются эффективные модели развития и повышения человеческого потенциала, а также их роль в мировой практике.

Ключевые слова: человеческий потенциал, человеческий капитал, стратегия развития, система образования, инновации, экономический рост, международный опыт, социальная политика

RESUME:

This article analyzes effective models for the development and enhancement of human potential, as well as their role in global practice.

Keywords: human potential, human capital, development strategy, education system, innovation, economic growth, international experience, social policy.